

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK

JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL
JOURNAL MINISTRY OF PUBLIC
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN

2020

3-son

(may-iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma
berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

4	Jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzi – salomatlik asosidir
----------	---



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

O. Xamidov B. Ma'murov, I. Xamraev, B. Ma'murov	6 10	Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida pedagogik sohani yuksaltirishning istiqbolli yo'nalishlari Zamonaivi sharoitda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari O'qituvchilarni darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatda oila bilan hamkorlikka o'rgatish masalalari
Adiba Baxronova	14	Sog'lom avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyati
N. Davronov	18	Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari
A. Sattorov	20	Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etishning pedagogik - psixologik xususiyatlari
R. Kadirov	25	Talabalarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish tizimini takomillashtirish
R. Shukurov	30	Tizimli yondashuv asosida talabalar jismoniy tarbiya bo'yicha ilmiy faoliyatini tashkil etish xususiyatlari
S. Abduyeva	35	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sifat turlari bo'yicha jismoniy tarbiya to'garaklarini tashkil etishning tashkiliy-pedagogik asoslari
G'. Salimov, J. Jalolov	38	Jismoniy tarbiya va sport sohasining pedagogik o'Ichov metodlari
B. To'xtayev, S. Turayev, O. Tursunov	41	



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

N. Muxitdinova, A. Afraimov	45	Sport mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar jismoniy tayyorgarligining rivojlanish ko'satkichlari
I. Saidov	49	Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslari orqali o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish metodikasi
M. Fatullayeva	52	Maktab o'quvchilari uchun (11-12 yoshli) yengil atletika sport mashg'ulotlarining asosiy vosita va uslublari
M. Abdullayev	56	Yengil atletikachilarni tayyorlashda (10-12 yoshlilar) jismoniy tayyorgarlik dinamikasini aniqlash mezonlari
N. Sabirova	61	Ta'lim muassasalarida futbol o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish strategiyasi
S. Qurbonov, K. Yodgorov	66	Yosh basketbolchilarning jismoniy tayyorgarlik jarayoni
M. Abdullayev, Z. Turayeva	69	Qizlar jismoniy tayyorgarligida sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlarining ahamiyati
Q. Arslonov, F. Muzafarova, J. Jo'rayev	73	Kurash usullarini yangi bosqichda o'rgatish texnologiyalari

Pedagogik amaliyot tajribasini o'rganib, ko'pgina ota-onalar va pedagoglar bolalarda barqaror oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash maqsadida maktab va oilaning samarali hamkorligini ta'minlash muammosiga duch kelishlarini aniqlash mumkin. Agar ana shu uchta bo'g'in bir maqsad yo'lida birlashsa, har kim o'z vazifalarini aniq tasavvur etib, vijdongan bajarsagina ta'limning tarbiyaviy qudrati oshadi [4].

Manbalar tahviliga asosan, olimlar oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida fuqarolik mas'uliyati va o'zini o'zi anglash, insonning ma'naviy madaniyatining yuqori darajasi, oila institutini ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida tushunishga asoslangan tasavvurlarni tushunadilar. Mazkur vazifani amalga oshirishda boshlang'ich ta'lif davri ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki pedagog faoliyatining maqsadi yosh avlodni ma'naviy yuksalish, oilaviy qadriyatlar, o'zini bo'lajak hayotiga mas'uliyatli shaxs sifatida anglashga yo'naltirish bo'lishi kerak.

Shu tariqa, o'quvchilarning oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tarbiyalash jarayonining metodologik asosini ilmiy bilimning umumnazariy va dialektik prinsiplari, nazarriya va amaliyotning birligi, shaxs nazariyasingning konseptual qoidalari, oilaviy tarbiyaning etnopedagogik tajribasi, atrof-olamning hodisa va jarayonlarining o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi falsafiy qoidalari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash bo'yicha falsafa va pedagogikaning yetakchi g'oyalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif va o'quvchilarning barkamol rivojlanishlari g'oyalari, pedagogik hodisalarining tahviliga tizimli-tuzilishli va faoliyatlari yondashuvlar, o'qitishda individual, tabaqalashgan yondashuvlar, ta'lif muassasasida o'quv-tarbiya jarayonining mazmuni va tashkil etish shakllariga innovatsion yondashuvlarning zamонавиy nazariy asoslari, madaniy, ta'limiy muhitni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish konsepsiyalari tashkil etishi kerak.

Qo'yilgan vazifalarni hal etishda asosiy ilmiy-pedagogik yondashuvlar qo'llanilishi mumkin: Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. O'quvchilarning darsdan tashqari oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tarbiyalashga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv prinsipi har bir insonni betakror noyob shaxs sifatida qarash, o'quv-tarbiya jarayonida uning yutuqlarini doimo namoyon etish va ta'kidlashni talab etadi. O'quvchilarning oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tarbiyalashga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda mahsuldor ijodiy faoliyat asosiya aylanadi, alohida ko'nikma va malakalar tizimini hosil qilishga yo'naltirilgan reproduktiv faoliyat esa asosiy faoliyatga nisbatan yordamchi sifatida qaraladi.

Shaxsiy-iijtimoiy yondashuv. Milliy pedagogika g'oyalari va an'analari ustuvor hisoblanadi, zamонавиy ilmiy nazariyalar nuqtai nazaridan o'rganiladi, tarbiya shaxsning ijtimoiylashuv va insonparvarlik muhitida uning individualligini rivojlantirishni birlashtiruvchi yaxlit jarayon sifatida talqin etiladi.

Shaxsiy-faoliyatli yondashuv. Bu muayyan shaxs rivojlanishining psixologik va pedagogik qonuniyatlariga asoslanadigan metodologik sintezidir. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv ta'lifning ustuvor vazifalari to'g'risidagi tasavvurni tubdan o'zgartiradi. Vazifa shaxs sifatlarini rivojlantirishda nafaqat bilimlarni, faoliyat usullari, me'yor va qadriyatlar ni egallahsdan, balki shaxsning intellektual va axloqiy imkoniyatlarini, uning murakkab ijtimoiy sharoitlarda o'zini erkin his etish, ijodiy jarayonlarni amalga oshirish qobiliyatini namoyon etishdan ham iboratdir. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv o'quvchilarning o'quv-tarbiya jarayonida va darsdan tashqari amalga oshadigan faol subyekt sifatida shakllanishlaridan iborat.

Madaniyatshunoslik yondashuvining mohiyati insonparvarlashtirish va gumanitarlashtirish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, u dunyo va milliy madaniy qadriyatlarni saqlash va qayta ifodalashga yo'naltirilgan, insonda madaniyat va axloqni tarbiyalashdan iborat. Madaniyatshunoslik faoliyati ma'lum bir ifodali faoliyat hisoblanmaydi, balki ixtiyor-

Nurzod DAVRONOV,

Buxoro davlat universiteti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasi o’qituvchisi

SOG’LOM AVLOD TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Annotation

Mazkur maqolada milliy qadriyatlar asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarining jismoniy madaniyat sifatlarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so’zlar. Qadriyat, tarbiya, jarayon, omil, xususiyat, ruhiyat, tafakkur, iroda, kamolot.

В данной статье показаны особенности формирования физической культуры учащихся начальных классов педагогическими средствами на основе национальных ценностей.

Ключевые слова. Ценность, воспитание, процесс, фактор, свойства, психика, мышление, воля, совершенствование.

This article shows the features of the formation of the physical culture of primary school students by pedagogical means based on national values.

Key words. Value, upbringing, process, factor, properties, psyche, thinking, will, improve.

Vatan, xalq shuhratini dunyoga tarannum etishda jismoniy tarbiya va sportning o’rnini beqiyosdir. Jahan miqyosidagi turli nufuzli musobaqlarda o’zbek yoshlari erishayotgan g’alabalari bu haqiqatni tasdiqlab turibdi. Chunki bar-kamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori va kelajak asosi hisoblanadi.

Ona Vatan buyuk bo’lmog’i uchun shu zaminda yashovchilar aqlan va jismonan sog’lom bo’lishlari shart. Ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umum davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanib, u ko’pmillatli Vatanimizda tug’ilib o’sgan, tomir yoygan barcha qardosh xalqlar uchun birday ezgu maqsaddir.

Tarix va ajodolarimiz qoldirgan buyuk ma’naviy meros va milliy qadriyatlarimizdan ma’lumki, qadimda ota-bobolarimiz umumbashariy tuyg’ular, o’lmas Sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya qilib kelganlar va ular asrlar davomida tilimizni, dilimiz va dinimizni, millatimizni, o’zligini har tomonlama asrab-avaylab, barkamol avlodlarni voyaga yetkazishni asosiy maqsad qilib qo’yanlar. Darhaqiqat, bunday fazilatlar asl e’tiboriga ko’ra bizning zaxmatkash xalqimizga munosib ish bo’lib, biz avlodlar bu bilan har qancha faxrlansak arziyi. Mamlakatimizda jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umum davlat miqyosidagi vazifa bo’lib, bu ezgu maqsad yo’lida amalga oshirayotgan ishlarmizni izchil va qat’i-yatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi.

O’zbek xalqining ming yillar davomida yaratgan, avloddan-avlodga o’tib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunda pedagogika fani oldidagi muhim masalalaridan biridir. Buning ustiga maktab

dasturidan o'rin olgan sport turlari vositasida yosh avlodning jismoniy sifatlarini rivoj-lantirish juda qulay.

Har bir xalq o'zligini anglamasdan, milliy madaniyati, milliy qadriyatlarini asrab-a-vaylab saqlamasdan turib, boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qaray ol-maydi. O'zbekistonning kuch-qudrati xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiq-ligidadir. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosa-bat xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi.

"Qadriyat" iborasi insonga, jamiyatga nisbatan berilib, ta'riflangandagina muay-yan ma'noga ega bo'lishi, aniq mazmun kasb etishi mumkin. Zero, "Qadriyat" degan-da, ehtiyoj va manfaatlarni qondiruvchi jamiki moddiy hamda ma'naviy ne'matlar tu-shuniladi. Albatta, hech bir buyum yoki voqelik inson va uning ehtiyojlardan alohida olib talqin etilganda biron-bir qadr-qimmatga ega bo'lmaydi. Jamiyat hayotida mavjud turli-tuman qadriyatlarni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, diniy, milliy, ma'naviy maz mundagi qadriyatlarga ajratish mumkin.

Ta'kidlash joizki, qadriyatlarning jamiyat, davlat va shaxs hayotida tutgan o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda fanda, xususan, falsafa fani doirasida qadriyatlar nazariyasi – aksiologiya shakllangan.

"Qadriyat" atamasi bugungi kunda o'zining haqiqiy ma'nosiga ega bo'lish bilan bir qatorda ijtimoiy hayotda mohiyat jihatdan to'g'ri qo'llanishga erishilmoxda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev Navro'z bayramining 2019-yildagi tantanalarida so'zlagan nutqida "Aynan shu betakror va dilbar faslda barchamiz o'zimizni yasharib ketgandek, vujudimizga yangi kuch-g'ayrat, azmu shijoat kirgandek his etamiz. Necha yuz yillik an'ana va qadriyatlarimizni yangidan kashf etamiz, qanday buyuk tarix, qan-day buyuk madaniyat vorislari ekanimizni yana bir bor anglaymiz. Va bundan qalblari-miz g'urur va iftixorga to'ladi" deb ta'kidladi.

Bu ham o'z navbatida qadriyatlarga bo'lgan yuksak ehtiromning davlat darajasida talqin qilinayotganligi va e'tirof etilganligidan dalolat beradi.

Milliy qadriyatlarning asosiy bo'g'ini sifatida xalq o'yinlari hamma zamonlarda muhim pedagogik vosita sanalgan. Agar boshlang'ich ta'lim jarayonida xalq o'yinlaridan foydalanilsa, o'quvchilar jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jismonan va ruhan tayyorlanib boradi, xalqimizning milliy qadriyatları, urf-odat va an'analari haqida dast-labki tushunchaga ega bo'ladi, guruhda ishslash, mas'uliyatni his qilish, o'z faoliyatini tanqidiy baholash ko'nikmalari shakllanadi.

Ta'kidlash lozimki, mintaqamizning boy ma'naviy madaniyati, uning noyob milliy qadriyatları, bebafo falsafiy va ma'naviy merosi xalqimizning ruhiyati, ma'naviyatini yanada yuksak darajaga ko'tarish uchun xizmat qilmoqda. Jamiyat taraqqiyotida, in-son hayotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ham alohida o'r'in tutadi. Erkinlik, tenglik, biro-darlik insoniyat tomonidan hamisha e'zozlab, qadrlanib kelingan.

Xulosa qilib aytganda, milliy ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalq-nинг mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov K. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. – T.: "Ma'naviyat", 1998.
2. Qoraboyev U. Xalq o'yinlari. -T.: 2001.
3. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: "O'zbekiston", 1998.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o'rinnbosari v.v.b:
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas'ul kotib:
Pardayev To'lqin Xasan o'g'li

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay'ati:
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO'RAYEV,
Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV, G'ayrat
SHOUMAROV, Hikmatilla RASHIDOV, Shavkat
SHARIPOV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa
MUSURMONOVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Nargiza RAXMANKULOVA, Shaxnoza
XALILOVA, Muhammadjon QURONOV, Islom ZOKIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan
oltingan matnlar "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagи 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"TAFAKKUR NASHRIYOTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: ____ -y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi _____ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2020.